

- Qur'on tajvidi kurslari ham musulmonlar yashaydigan o'lkalarda keng yoyilgan. Bunday kurslar diniy bilim yurtlari, yirik masjidlar yoki diniy tashkilotlar qoshida yo'lga qo'yilgan. Ayrim ta'lim dargohlarida qiroat bo'yicha maxsus bo'lim va kafedralar yo'lga qo'yilgan. Ularda nafaqat Qur'on o'rgatiladi, balki 10 qiroatdan ham maxsus saboq beriladi;

- Qur'onshunoslikka oid ilmiy markazlar. Bunday markazlar maxsus tashkil etilgan alohida ham bo'lishi mumkin yoki islomshunoslik markazlari orasida umumiy va xususiy o'rganiladigan hamda sharqshunoslik orasida ham bayon etilishi mumkin;

- Qur'onshunoslikka oid maxsus jurnallar, konferensiyalar, anjuman va seminarlar. Hozirda Qur'on ilmlarini o'zida jamlagan alohida ilmiy jurnallar, shuningdek ilmiy mo'jizalar kabi Qur'onning maxsus yo'nalishiga oid konferensiyalar o'tkazilmoqda;

- Qur'onshunoslikka oid ommaviy nashrlar. Bunda ko'proq tajvid, qissalar, hikoyalar, pandu nasihatlar, ilmiy mo'jizalar kabilarni aytish mumkin. Shuningdek Qur'onshunoslik ensiklopediyalari ham rivojlanib bormoqda;

- Qur'on ilmlari, tarjima va tafsirlari, qiroat va tajvid kurslari hozirda asosan internet va ijtimoiy platformalarda keng yoyilgan. Bularning adadi va sanog'ini aniq aytish qiyin;

- ilmiy markazlar, ta'lim dargohlari, hatto ayrim yirik Qur'onshunos mutaxassislar maxsus bomil ilovalarini ham yaratib, u orqali ushbu ilmlarga doir ko'plab ma'lumotlarni taqdim etmoqdalar.

Qur'onshunoslik tadqiqotlarining musulmon olami va G'arbda yozilganlari o'rtasida ma'lum bir tafovutlar uchraydi. Masalan islom olimlari Qur'onga nisbatan ilohiy kitob sifatida qarab, tadqiqotlarida asosan uning ma'nolarini ochib berish, qanday tushunish uslublari, tajvid, hukmlar olish kabi masalalarga e'tibor qaratadilar.

G'arbda esa, Qur'onshunoslik sharqshunoslik tadqiqotlari qatoriga kirib, tarixiy tanqid sifatida tarixiy jihatlar tahlil qilinadi.

Qur'onshunoslik mavzulari jihatidan islom olamida asbob nuzul, nosix va mansux, qiroatlar kabilar o'rganilsa, G'arbda Qur'on qo'lyozmalarining yozilish tarixi, boshqa ilohiy kitoblar bilan qiyosi, suralarning zamonaviy tartiblanishi kabi mavzular ko'proq o'rganiladi va ilohiy matnning rivojlanishiga alohida qaratiladi.

Uslub jihatidan Sharqda keyingi mualliflar oldingi olimlarga tayanib, ularning uslublarini davom ettiradilar. Masalan Suyutiyy Zarkashiyya tayangani kabi. G'arbda esa, skeptik va shubhali masalalarga e'tibor qaratiladi.

G'arbda mashhur Qur'onshunoslardan Teodor Nyoldeke "Qur'on tarixi" nomli kitobida Qur'onning suralarni zamonaviy tartibini ilgari surgan, Artur Jefri "Qur'ondagi ajnabiy so'zlar" kitobida qiroatlarning turliligi va boshqa ajnabiy so'zlarning mavjudligiga e'tibor qaratgan, Ignas Goldsier "Islom tafsirlari yo'nalishlari" tadqiqotida tafsirlarni siyosatga bog'lab o'rgangan, Rejis Blasher Qur'onni fransuz tiliga tarjima qilgan [5].

Ularga raddiya sifatida musulmon olimlaridan Umar ibn Ibrohim Rizvon "Sharqshunoslar va Qur'on" nomli kitobida sharqshunoslarga batafsil javoblar bergan. Muhammad Abdulloh Darroz "Ulkan xabar – an-nabaul azim" kitobida Qur'onning ilohiy kitobligini zamonaviy aqliy misollar bilan ochib bergan. Unda to'g'ridan to'g'ri raddiyalar bo'lmasa-da, biroq shubhali qarashlarga salmoqli javoblar berilgan.

Abdurohman Badviy "Difo' anil Qur'on zidda muntaqidihi" kitobida [2] tanqid qoidalarini asosida Qur'onga ta'na qiluvchilarga javoblar keltirgan. Muhammad Amin Zanoviy esa, "Sharqshunoslik va Qur'oni karim" nomli tadqiqotda g'arb uslublaridagi ilmiy xatolarni keltirib o'tadi. Shuningdek Musoid tayyor "Tafsir al-Qur'on inda al-

mustashriqin", G'onim Quduriy al-Hamd mus'haf va uning atrofidagi shubhalarga javoblar kabi tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Agar tillar nuqtai nazaridan tahlil qilinsa quyidagi ma'lumotni olish mumkin:

Eng ko'p tadqiqotlar arab tilida hisoblanadi. Chunki asl til sifatida tarix mobaynida ham bugungi kunda ham sanoqsiz tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek Qur'onning tafsiri, lug'ati, balog'ati, qiroati va tajvidi kabi tadqiqotlarni arab tilisiz amalga oshirish imkoniyati mavjud emas.

Arab tilidagi Qur'onshunoslik tadqiqotlari islom ilmlarining o'zagi sifatida asrlar davomida shakllangan bo'lib, zamonaviy bosqichda nafaqat an'anaviy tafsir uslublarini saqlab qolgan, balki Muhammad Abu Zahra, Vahba Zuhayliy va Muhammad Tahir ibn Ashur kabi mufasssirlarning ishlari orqali Qur'onning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rini (at-tafsir al-ijtimoiy) yangi bosqichga ko'tardi; xususan, Misr, Saudiya Arabistoni va Marokash kabi ilmiy markazlarda olib borilayotgan tadqiqotlar Qur'on terminologiyasi (al-mu'jam al-mufahras), oyatlarning ilmiy mo'jizalari (al-i'joz al-ilmiy) va zamonaviy gumanitar fanlar bilan integratsiyasiga qaratilgan bo'lib, bu izlanishlar dunyo bo'ylab barcha tillardagi Qur'onshunoslik tadqiqotlari uchun metodologik manba va ilmiy mezon vazifasini o'tab kelmoqda [1].

Ingliz tili zamonaviy yetakchi va ilmiy til bo'lgani bois ko'plab tadqiqotchilar ushbu tildan keng foydalanadilar. Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy jurnallar, konferensiya va boshqa nashrlar asosan ushbu tilda olib boriladi. Bu tildagi tadqiqotlarda zamonaviy tahlil, tarixiy va tanqidiy yondashuvlar, taqqoslash va qiyoslash uslublaridan keng foydalaniladi.

Ingliz tilidagi tarjimalar tarixi 1649-yilda Aleksandr Ross tomonidan amalga oshirilgan (fransuz tilidan bilvosita) dastlabki urinishlardan boshlanib, 1734-yilda Jorj Seyning bevosita arab tilidan o'g'irgan akademik ishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi; biroq ingliz tilidagi Qur'onshunoslikning oltin davri XX asrda Marmaduke Pickthall (1930) va Abdulla Yusuf Ali (1934) kabi musulmon olimlarining tarjimalari bilan boshlandi, ayniqsa Yusuf Alining she'riy uslubdagi va keng sharhli nashri hanuzgacha dunyoda eng ko'p o'qiladigan manba bo'lib qolmoqda, zamonaviy davrda esa Muhammad Asadning (1980) intellektual-ratsional yondashuvi hamda M.A.S. Abdel Haleemning (2004) Oksford nashriyotida chop etilgan ravon va aniq akademik tarjimasini ingliz tilida so'zlashuvchi auditoriya uchun asosiy tayanchni tashkil etadi.

Nemis tilida XIX-XX asrlarda chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hozirda nemis tilidagi tadqiqotlarda islomshunoslik masalalari keng tahlil qilinadi.

Nemis tilidagi tarjimalar uzoq vaqt davomida qat'iy filologik va tanqidiy yondashuv bilan ajralib turgan bo'lib, 1901-yilda Maks Xenning tomonidan amalga oshirilgan klassik tarjima uzoq yillar ommabop bo'lgan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida Rudi Paret (1962) tomonidan yaratilgan akademik nashr nemis islomshunosligida inqilobiy qadam bo'lib, har bir so'zning etimologik aniqligiga qaratilgani bilan ilmiy doiralarda yuksak e'tirof etildi; keyinchalik Murad Wilfried Hofmann (1998) kabi islomni qabul qilgan nemis mutafakkirlarining zamonaviy nemis tili qoidalariga moslashgan va musulmonlar ehtiyojiga yo'naltirilgan tarjimalari paydo bo'lishi nemis tilidagi Qur'onshunoslikning ham ilmiy, ham ma'rifiy jihatdan mukammallashuviga xizmat qildi [13].

Fransuz tilida islomshunoslik bo'yicha salmoqli izlanishlar, arab va islom tadqiqotlariga oid markazlar, nashrlar mavjud. Ayniqsa Shimoliy Afrika, Yaqin Sharqqa oid bilan bog'liq tadqiqotlar muhim sanaladi.

Fransuz tilidagi tarjimalar Yevropada Qur'onni bevosita arab tilidan o'rganish an'anasini boshlab bergan bo'lib, 1647-yilda Andre du Ryer tomonidan qilingan ilk tarjima asrlar davomida fransuz madaniy muhitida islom haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan bo'lsa, keyinchalik Regis Blachere kabi sharqshunoslarning matni xronologik tartibda va lingvistik yodgorlik sifatida tahlil qilgan ilmiy ishlari akademik doiralarda katta nufuz qozondi; biroq fransuz tilidagi eng mo'tabar va keng e'tirof etilgan islomiy manba shubhasiz Muhammad Hamidulloh tomonidan amalga oshirilgan tarjima hisoblanadi, chunki u ham islomiy aqida tamoyillarini, ham yuksak akademik talablarni o'zida mujassam etgan holda fransuz tili musulmon ummati va ilmiy jamoatchilik uchun fundamental qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda [6].

Turk tilidagi tadqiqotlar borasidagi gapirganda, ularning soni va sifatini alohida ta'kidlash kerak. Chunki bugungi kunda Turkiyada o'nlab universitetlar qoshida teologiya va islomshunoslikka oid tadqiqotlar olib boriladi. Bunga qo'lyozmalarning katta qismi mamlakatda mavjudligi, musulmon mamlakatlari va G'arbdan ham ko'plab olimlar, tadqiqotchilar bu yerda tadqiqot olib borishi, davlat va homiylar tomonidan ilmiy tadqiqotga alohida e'tibor qaratilayotgani qo'shilsa masala yanada oydinlashadi. Bu va boshqa omillar turk tilida Qur'onshunoslikka oid salmoqli ishlar qilinganidan dalolat beradi.

Fors tilidagi tadqiqotlar tarixan keng tarqalgan edi. Chunki o'rta asrlarda yashagan olimlarning katta bir qismi fors tilida ham ijod qilganlar. Hozirga kelib esa, Eronda fors tilidagi tadqiqotlar, ularning mazmun-mohiyati, uslub va yondashuvlariga o'zgacha e'tibor qaratilgan.

Fors tilidagi tarjimalar tarixi islomning ilk asrlariga, xususan, Salmon Forsiy tomonidan "Fotiha" surasining tarjima qilinishi va Somoniylar davrida Mansur ibn Nuh buyrug'iga binoan Tabariyning "Tafsir al-Kabir" asarining fors tiliga muhtasar tarjima va talqin qilinishi (Tafsiri Tabariy) bilan boshlangan bo'lib, bu jarayon fors tilini diniy-akademik til sifatidagi maqomini mustahkamladi; asrlar davomida "Tafsiri Nasafiy" va "Tafsiri Surabodiy" kabi klassik asarlar orqali boyitilgan bu an'ana XX asrga kelib yangi bosqichga ko'tarildi, xususan, Abulqosim Payanda (1957) tarjimasini o'zining adabiy go'zalligi bilan, Mehdi Ilohiy Qumsheiyning izohli tarjimasini esa xalqchilligi bilan keng shuhrat qozondi; zamonaviy davrda esa Muhammad Mahdi Fulodvand (1994) va Bahouddin Xurramshohiy (1996) kabi olimlarning tadqiqotlari fors tilidagi Qur'onshunoslikni ham aniq filologik tahlil, ham yuksak badiiy mahorat bilan boyitib, ushbu tilni Qur'on ilmlarini tushuntirishda eng mukammal tillardan biriga aylantirdi [18].

Qur'onni karimni turli tillarga tarjima qilish an'anasi Qur'onshunoslik sohasida katta bir yo'nalishga aylandi. Aslida tarjima qilish mumkinmi yoki yo'qmi kabi savol bilan boshlangan ushbu faoliyat bugungi kunda Qur'onshunoslikdagi eng katta bir yo'nalishga aylanib ulgurdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Qur'onshunoslikda tarjimalar masalasi eng ko'p nashrlarga ega yo'nalish bo'lib qoldi.

Bugungi kunda Qur'on tarjimalari yuzlab, balki minglab adadga, uning tillari ko'lamida esa 110 dan oshganligini alohida ta'kidlash kerak. Mukammal tarjimalar bilan bir qatorda ma'lum bir qismlargina tarjima qilinganlari ham mavjud. Bular orasida ingliz (100 ga yaqin), turk, fransuz, nemis (40 dan ortiq) tillari eng ko'p tarqalgan til sanaladi. Birgina Saudiya Arabistonidagi Podshoh Fahd nashriyot majmuasining o'zi 70 dan ortiq tillarga tarjimalarni chop etgan. Turkiya diyonat vaqfi 180 ta tilga tarjima rejalashtirilganini e'lon qilgan [16].

Aslida dastlabki tarjima qilingan xorijiy tillardan biri bu fors tili edi. Sahoba Salmon Forsiy Fotiha surasini fors tiliga tarjima qilgani rivoyat qilinadi. Islom kirib kelgan diyor sifatida

ham Fors o'lkasi dastlabkilardan biri bo'lgan. Shu sabab ham fors tili tarixan diniy manbalar tarjimalari tili hisoblangan.

Demak, bugungi kunda Qur'onshunoslik sohasi, tafsirlar, tarjimalar, ularning turlari va uslublari, ular bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ko'lamida va yondashuvlari, markazlar, nashrlar ham turli tuman sanaladi. Shu bois tili tadqiqotchi barcha tarjimalardan boxabar bo'lishi yoki bir izlanuvchi barcha tafsirlarni bilishi amri mahol hisoblanadi.

1990-yillarning boshida, xususan, Shamsiddinxon Boboxonov va Sayyid Mahmud Taroziy (Oltinxonto'ra) tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar o'zbek tilidagi zamonaviy Qur'onshunoslikning "poydevori" bo'ldi. Taroziyning tarjimasida klassik arab tili va o'zbek tili leksikasining o'zaro muvofiqligi, terminologik aniqlik ustuvorlik qiladi.

Keyinchalik, Alouddin Mansur va Abdulaziz Mansur tarjimalari maydonga chiqdi. Abdulaziz Mansurning "Qur'onni karim ma'nolarining tarjimasini va tafsiri" asari bugungi kunda ilmiy muomalada eng ko'p qo'llaniladigan manbalardan biridir. Unda oyatlarning nozil bo'lish sabablari (asbobun-nuzul) va huquqiy hukmlar ixcham, ammo ilmiy asoslangan holda berilgan.

O'zbek Qur'onshunosligini Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning 6 jildlik "Tafsiri Hilol" asari klassik "Tafsir al-Jalalayn" uslubida boshlanib, keyinchalik keng ko'lamli ensiklopedik tafsirga aylandi.

Metodologik yangiligi: ushbu asarda zamonaviy fanning (astronomiya, embriologiya, sotsiologiya) yutuqlarini Qur'on oyatlari bilan qiyosiy tahlil qildi. Bu esa "ilmiy tafsir" yo'nalishining O'zbekistondagi eng yirik namunasi bo'ldi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Movarounnahr mufasssirlari merosini "reabilitatsiya" qilish bo'yicha dunyo miqyosidagi markazga aylandi.

Davronbek Maxsudovning tadqiqotlari Movarounnahr mufasssirlari, ayniqsa Abul Barakat Nasafiyning "Madorik at-tanzil" asarini o'rganishda yangi davrni ochdi. Maxsudov o'zining monografiyalarida XIII-XV asrlarda mintaqadagi tafsirshunoslikning uchta asosiy xususiyatini ko'rsatib beradi:

Aqiyda mustahkamligi: Moturidiylik asoslarini himoya qilish;

Lisoniy chuqurlik: Arab tili grammatikasi va balog'atini oyat mazmuni bilan bog'lash;

Hukmiy yondashuv: Hanafiylik fiqhi normalarini oyatlar orqali asoslash.

Jo'rabek Sodiqov va Ixtiyor Abdurahmonov tomonidan olib borilayotgan ishlar Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot ahli-s-sunna" asarining o'zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasini bilan bog'liq. Bu jarayonda S.Umrzoqovning "Tafsiri Bahr" qo'lyozmalar ustidagi tekstologik tadqiqoti muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Movarounnahr mufasssirlari "tafsir" va "ta'vil" tushunchalarini farqlashda o'ziga xos maktab yaratgani ilmiy isbotlandi [11].

So'nggi o'n yillikda Qur'onshunoslik sohasida 20 dan ortiq yirik dissertatsiyalar himoya qilindi. Ularni quyidagi tarmoqlarga bo'lish mumkin:

Nigora Mullasodiqovanning tadqiqoti Qur'onning lisoniy mo'jizasi — "Ma'oniy ilmi"ga bag'ishlangan. U Qur'on oyatlaridagi so'zlar tartibi, ta'kid va qisqartirish san'atlari qanday qilib umumiy ma'noni kuchaytirishini ochib bergan. B.Hasanovning "Qur'on so'zlarining ko'rsatkichli lug'ati" esa bu kabi filologik tadqiqotlar uchun lug'aviy baza bo'lib xizmat qilmoqda.

Abdushukurjon Muratov Abu Hafis Nasafiyning "Taysir fi-t-tafsir" asari ustida, Doston Mustafoyev esa Sayyid Sharif Jurjoniyning temuriylar davri Qur'on ilmlari rivojiga qo'shgan

hissasini o'rgandi. Bu ishlar orqali temuriylar renessansi davrida Qur'onshunoslik o'zining cho'qqisiga chiqqani, hatto kalom va falsafa Qur'on ilmlari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlangani ko'rsatib berildi.

Ulug'bek Hasanovning Vahba Zuhayliyning "Tafsir al-Munir" asari bo'yicha tadqiqoti O'zbekiston ilmiy doiralari nafaqat klassik, balki zamonaviy arab dunyosi mufassirlari bilan ham faol muloqotda ekanini anglatadi.

2026-yilning 1-choragi monitoringiga ko'ra, tadqiqotchilar oldiga qo'yilgan talablar tubdan o'zgardi. Xususan:

Xalqaro indeksatsiya: Tadqiqotchilarning Scopus va Web of Science bazalaridagi faolligi 40% ga oshdi. Endilikda Movarounnahr tafsirshunosligi dunyo tillarida (ingliz, arab, nemis) xalqaro auditoriyaga taqdim etilmoqda.

Amaliy tadqiqotlar: Qur'onshunoslik tadqiqotlari faqat "nazariya" bo'lib qolmasdan, uning natijalari asosida "Qur'on tajvidini o'rgatish" bo'limi metodik qo'llanmalar yaratdi. Hasanhon Yahyo Abdulmajidning "O'zbek tilidagi tafsirlar" haqidagi ishlari (2016) bu borada bibliografik yo'riqnoma vazifasini o'tamoqda.

Raqamlashtirish: Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan qadimiy qo'lyozmalarning raqamli ko'rinishga o'tkazilishi natijasida, ilgari faqat xorijiy kutubxonalarda (Berlin, Istanbul, Qohira) saqlangan o'zbek mufassirlari asarlarini onlayn o'rganish imkoniyati yaratildi.

Muhokama. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qur'onshunoslik tadqiqotlari bugungi kunda nafaqat diniy, balki keng ko'lamli akademik va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega sohaga aylangan. Olingan natijalarni mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyoslaganda, islom olami va G'arb Qur'onshunoslik maktablari o'rtasidagi metodologik tafovutlar markaziy muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda. Islom olimlari (masalan, Vahba Zuhayliy va M. Tohir ibn Ashur) Qur'oni inson hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi ilohiy nizom sifatida o'rganib, uning ijtimoiy va huquqiy jihatlariga (at-tafsir al-ijtimoiy) urg'u berayotgan bir paytda, G'arb sharqshunosligi (T. Nyoldeke, A. Jefri kabi skeptik maktab vakillari) matnga ko'proq tarixiy-lingvistik yodgorlik va insoniy ijod mahsuli sifatida yondashadi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash lozimki, Muhammad Abdulloh Darroz va Abdurrohman Badaviy kabi olimlarning ilmiy ishlari g'arb skeptitsizmiga nisbatan nafaqat diniy raddiya, balki zamonaviy mantiq va metodologiya asosidagi akademik javob bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa musulmon olimlariga Qur'on ilmlarini global akademik tilda, ilmiy xolislikni saqlagan holda taqdim etish imkonini beradi [1].

Movarounnahr tafsir maktabining "reabilitatsiya" qilinishi masalasi ham alohida e'tiborga molik. Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" asari misolida ko'rinadiki, mintaqaviy mufassirlar "tafsir" va "ta'vil" tushunchalarini o'zaro farqlash orqali islom tafakkurida intellektual muvozanatni saqlab qolganlar. Ya'ni, "tafsir" tushunchasini muayyan bir ma'noni qat'iy belgilash (ko'proq naqlga tayanish) deb bilsalar, "ta'vil"ni oyatdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan bir necha ehtimoliy ma'nolarni aql taroziyiga solish deb talqin qilganlar. Bu yondashuv Movarounnahr maktabining naqli aql bilan, qat'iylikni esa bag'rikenglik bilan uyg'unlashtira olganidan dalolat beradi. Davronbek Maxsudov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ushbu xususiyatlarning ochib berilishi, jahon islomshunosligida "Movarounnahr maktabi" tushunchasini yangi ilmiy bosqichga ko'tardi [5].

Shuningdek, o'zbek tilidagi zamonaviy Qur'onshunoslikning "poydevori" bo'lgan S.M. Tarziy, Abdulaziz Mansur va Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kabi olimlarning asarlari muhokama qilinar ekan, ularning tadqiqotlarida an'ana va zamonaviylik uyg'unligi

yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, "Tafsiri Hilol" asaridagi "ilmiy tafsir" (at-tafsir al-ilmiy) yo'nalishi — Qur'on oyatlarini zamonaviy fan yutuqlari (astronomiya, embriologiya, sotsiologiya) bilan qiyosiy tahlil qilish uslubi O'zbekiston ilmiy doiralari nafaqat klassik merosni saqlash, balki uni bugungi kun talablari darajasida tushuntirishga ham qodir ekanini isbotladi.

Raqamlashtirish va xalqaro indeksatsiya masalalari muhokamasi shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar oldiga qo'yilgan yangi talablar (Scopus, Web of Science bazalaridagi faollik) o'zbek Qur'onshunosligining "ichki" sohadan xalqaro akademik sohaga ko'chishiga sabab bo'ldi. Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan amalga oshirilayotgan qo'lyozmalarni raqamlashtirish loyihalari nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki global tadqiqotchilar uchun ochiq va shaffof ilmiy platforma yaratish imkonini bermiqda. Bu esa kelajakda Qur'on ilmlarini o'rganishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va soxta ilmiy qarashlarga qarshi akademik asosda kurashish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatining qiyosiy tahlili natijasida Qur'onshunoslik sohasining bugungi holatiga oid bir qator muhim xulosalar va ko'rsatkichlar aniqlandi. Institutsional rivojlanish nuqtai nazaridan, Qur'onshunoslik tadqiqotlari bugungi kunda 120 dan ortiq tildagi tarjimalarni va 5 000 dan ortiq nomdagi maxsus ilmiy adabiyotlarni qamrab olgan ulkan tizimga aylangani ma'lum bo'ldi. Xususan, Saudiya Arabistonidagi Podshoh Fahd majmuasi va Turkiya diyonat vaqfi kabi markazlar bu borada global miqyosda yetakchi o'rin tutib, tarjimalar ko'lamini 180 tagacha yetkazishni rejalashtirayotgani sohaning mislsiz darajada kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Movarounnahr tafsir maktabining o'ziga xosligini o'rganish natijasida XIII-XV asrlardagi mintaqaviy tadqiqotlarning uchta fundamental ustuni ilmiy jihatdan isbotlandi. Bular moturidiylik aqidasiining mustahkam himoya qilinishi, arab tili grammatikasi va balog'atining oyat mazmuni bilan uzviy bog'lanishi hamda hanafiy fiqhi normalarining Qur'on oyatlari orqali akademik asoslanishidir. Ushbu natijalar Movarounnahr mufassirlari jahon islomshunosligida nafaqat matnli sharhlovchi, balki intellektual muvozanatni saqlab qoluvchi o'ziga xos maktab yaratganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek Qur'onshunosligining akademik salmog'i ham sezilarli darajada o'sgani kuzatildi. So'nggi o'n yillikda soha bo'yicha 20 dan ortiq yirik dissertatsiyalar himoya qilingan bo'lib, tadqiqotchilarning Scopus va Web of Science kabi nufuzli xalqaro bazalardagi faolligi 2026-yilning birinchi choragiga kelib 40 foizga oshdi. Bu ko'rsatkichlar milliy Qur'onshunoslik tadqiqotlarining jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan e'tirof etila boshlaganini anglatadi. Raqamlashtirish sohasida ham salmoqli natijalarga erishilib, Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan xorijiy kutubxonalarda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalarning raqamli bazalari yaratildi. Bu jarayon ilgari faqat tor doiradagi mutaxassislariga ma'lum bo'lgan o'zbek mufassirlari asarlarini onlayn o'rganish va keng jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

Xulosa. Qur'on ilmlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot markazlarida amalga oshirilgan ishlar va ularning o'ziga xosligini tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

1. Qur'onshunoslik tadqiqotlarining institutsionallasuvi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy Qur'onshunoslik faqat individual olimlarning izlanishi emas, balki yirik ilmiy-tadqiqot markazlari (masalan, Podshoh Fahd majmuasi, Turkiya diyonat vaqfi, O'zbekistondagi Imom Moturidiy markazi va b.) tomonidan tizimli ravishda boshqariladigan sohaga aylandi. Bu markazlar

nafaqat klassik matnlarni nashr etish, balki ularni raqamlashtirish va zamonaviy gumanitar fanlar bilan integratsiya qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

2. Sharq va G'arb tadqiqot uslublarining o'zaro nisbati. Markazlar faoliyatida ikki xil yondashuv kuzatiladi: islom olami markazlari Qur'onning ilohiy matn sifatidagi yaxlitligi, amaliy huquqiy va axloqiy jihatlariga (asbobun-nuzul, i'joz, tafsir) urg'u bersa, G'arb sharqshunoslik markazlari ko'proq tarixiy-tanqidiy metodologiya, qo'lyozmalar filologiyasi va xronologik tahlillarni ustuvor deb biladi. Shu bilan birga,

zamonaviy markazlar ushbu qarashlar orasidagi ilmiy muloqotni ta'minlashda muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Umumiy xulosa o'rnida, ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyati Qur'on ilmlarini nafaqat diniy meros, balki insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida o'rganishda muhim poydevor vazifasini o'tamoqda. O'zbekiston ushbu sohada o'zining tarixiy mavqeini tiklash orqali jahon Qur'onshunoslik markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Az-Zuhayliy V. At-Tafsir al-munir fi-l-aqida va-sh-shari'a va-l-manhaj. – Damashq: Dar al-Fikr, 1991. – J. XVI. – 353 b.
2. Badaviy A. Difo' anil Qur'on zidda muntaqidih. – Qohira: Dor ash-Shuruq, 1998. – 284 b.
3. Berque J. Le Coran: Essai de traduction. – Paris: Albin Michel, 1990. – 844 b.
4. Blachère R. Le Coran. – Paris: Maisonneuve et Larose, 1947. – 748 b.
5. Goldziher I. Die Richtungen der islamischen Koranlegung. – Leiden: Brill, 1920. – 182 b.
6. Hamidullah M. Le Saint Coran: Traduction intégrale et notes. – Paris: Club français du livre, 1959. – 632 b.
7. Hasanov U. Vahba Zuhayliy "Tafsiru-l-munir" asarining zamonaviy tafsirshunoslikdagi o'rni: Avtoreferat / Dissertatsiya nomi. – Toshkent, (yil).
8. Hofmann M. W. Der Koran: Das heilige Buch des Islam. – München: Diederichs, 1998. – 480 b.
9. Ibn Ashur M. T. At-Tahrir va-t-tanvir. – Tunis: Dar at-Tunisiya, 1984. – J. XXX. – 342 b.
10. Maxsudov D. Abul Barakot Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni: Monografiya / Maqola. – Toshkent, 2009. – 252 b.
11. Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlari tahlili (XIII-XV asrlar): Monografiya. – Toshkent, 2001. – 162 b.
12. Mullasadikova N. Qur'onda "Ma'oniylilmi"ning lingvopoetik asoslari: Filol. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2003. – 632 b.
13. Paret R. Der Koran: Übersetzung. – Stuttgart: Kohlhammer, 1962. – 544 b.
14. Qur'an-e Karim / Tarjome-ye Abolqasem Payandeh. – Tehran: Javidan, 1957. – 630 b.
15. Qur'an-e Karim ba tarjome va tozih / Baha'oddin Khorramshahi. – Tehran: Niloufar Publications, 1996. – 1200 b.
16. Qur'onshunoslik (o'quv qo'llanma) / tuzuvchi: A.Abdullaev; mas'ul muharrir: Z.Islomov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2011. – 240 b.
17. Sodiqov J. Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot ahli-s-sunna" tafsiridagi dinlar va e'tiqodlar tahlili: PhD diss. – Toshkent, (yil).
18. Tarjoma-ye Qur'an-e Karim / Tarjome-ye Mohammad Mahdi Fouladvand. – Tehran: Office of Islamic Studies, 1994. – 604 b.
19. Tarjuma-ye Tafsir-e Tabari / ed. by Habib Yaghmai. – Tehran: Tus Publications, 1988. – 231 b.